



HOZIRGI O'ZBEK ADABIY TILIDA GAP BOLAKLARINING AHAMIYATI

Luqmonova Ruxsora Habibullo qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti, Tillar fakulteti 3-bosqich talabasi

<https://www.doi.org/10.37547/ejar-v03-i02-p4-153>

ARTICLE INFO

Received: 15th February 2023

Accepted: 26th February 2023

Online: 27th February 2023

KEY WORDS

Sintaksis, pragmatik
munosabat, fe'l kesim,
assotsiativ, so'z
kengaytiruvchilari, o'timli fe'l.

ABSTRACT

Ushbu maqolada hozirgi o'zbek adabiy tilining sintaksis bo'limida gap bo'laklarining ifodalanish shakllari, qo'shimchalar tasnifi hamda bap bo'laklari bilan aloqaga kirishadigan bo'laklar va qolaversa kesimning ifodalanish shakllari haqida ifodaviy fikrlar yuritilgan bo'lib, masalaga ilmiy qarash yoritib berilgan.

Bugungi kunda tilshunoslik sohasining qator sohalarida bo'lgani kabi hozirgi o'zbek adabiy tili fanida ham ma'lum o'zgarishlar yuz berib umumxalq tilining o'zgarishlarga uchrash holatlari kuzatilmoqda. Ushbu fanning funksional ravishda belgilaridan biri bu predikstivlik belgisi bo'lib, gap qismlarining ma'lum bir qonuniyatlarga bo'ysungan holatda bir belgining umumiylikka tayangan holda har bir dasturiy vositalarning umumiy belgisini bildirgan so'z shakllarining ifodaviyligi davomida qismlari bir-birini to'ldiruvchi, zarur hollarda bir ikkinchisiga tobe bo'lmagan holatda biri ikkinchisini taqazzoq etadigan bo'laklarning turlicha belgi qonuniyatlar asosida o'ziga xosligini saqlash ahamiyatlidir. Bunda paradigmaning ifoda shakli so'zni qo'llay olish ko'nikmalariga muvofiq tarzda berilishi jtimoiy-tabiiylikni keltirib chiqaradi.

“Hozirgi o'zbek adabiy tilida pragmatik munosabat shakllarining sintaksisda ifoda etilish qonuniyatlarining turli xil asoslarga mutanosib tarzda amalga oshirilish qonuniyatlarining tematik vositalari quyidagi unsurlar vositasida namoyon boladi”¹. Ular quyidagicha:

1. O'xshashlik;
2. Tinimlilik;
3. Assotsiativ;

Bugungi kunda hozirgi o'zbek adabiy tilining til sathida tutgan o'rnini munosib baholash, sintaksisning belgilarini turli ravishda gap vositalarida qo'llash so'zlarning o'zaro birikish holatlari bilan birgalikda so'zlarning tushuncha ifodalash holatlari ham ahamiyat kasb etadi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida kesimlik shakllarining qaysi qo'shimchalar bilan ifodalanishi

¹ Jamolxonov H. “Hozirgi o'zbek adabiy tili”. Toshkent-“To'lqin”- 2005



kesimlik shakllarining turli xil vositalarda ham ifodalanishi turli xil ifoda shakllari bilan bogliq. "Sintaksisda ifodalanuvchi gap bo'laklarining turli xil komponentlar vositasida namoyon bo'lishi ham atroflichadir. Bunda kesimning kesimlik qo'shimchalari bilan birgalikda boshqa gap bolaklari; ega, aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol va boshqalar bilan bog'liqlikda kelishida ham turli tarkibiy qismlarda muvofiqlik yuzaga keladi"². Bunda yetakchi fel va ko'makchi fel qismlaridan iborat bo'lsa bu tarkibli kesimning gramatik qo'shimchalar bilan ifodalanishi o'ziga xos moslikni yuzaga keltiradi. O'zbek tilida qanday hollarda kesimning ifodalanishi va uning belgisi va belgisiz qo'llanishi fe'lning nisbat shakllarida ham namoyon bo'ladi.

Turli holatlarda tarkibli kesimning mavjud tarzda ifodalanishini quyidagicha namunada kuzatish mumkin: Hammasi sen uchun, Dillobar uchun. Bundan tashqari kesimning so'z kengaytiruvchilari bilan ham ifodalanishida gap bo'laklaridan qaysi birining tarkibli jihatidan belgisi yoki belgisiz qo'llanishi ham ahamiyatlidir. Bunda ifodalaniyatgan gap bo'lagi qaysi qo'shimchalar bilan ifodalanishiga hamda belgisi yoki belgisiz tarzda ifodalanishiga kora ham farqlanish xususiyatlariga ega. Ayni so'z kengaytiruvchilarining lug'aviy gramatik asolarga tayanilishi asosan ravish so'z turkumlari bilan namoyon bo'lib, asosan payt va holatni ifodalashga xizmat qiluvchi so'zlar bilan ifodalanadi. Shuni unutmaslik kerakli so'z kengaytiruvchilari bilan birgalikda gap kengaytiruvchilari ham mavjud bo'lib, ularning ifodaviy farqlanishi va qolaversa, ma'noviy butunligida e'tiborli bolish maqsadga muvofiqdir.

O'timli fel va o'timsiz fe'lning hozirgi o'zbek adabiy tilida ifodalanish shakllari fe'lning ifoda maqsadiga ko'ra shallanishi ham ahamiyatlidir. Sintaksisda kesimning ifodalanish bosqichlarining nisbatlar vositasida konstruktiv tuzilishni hosil qiladi. Bunda o'zlik nisbatdagi fe'l shaklining kelishik qo'shimchalari vositasida yuzaga kelishi ham muhim vositadir. Kesimlik shaklining ifodalanishida ish-harakatning sodir bo'lish yoki bo'lmaslik nazariyalari ham fe'ldagi bo'lishlilik va bo'lishsizlik holatlarini hosil qilishda dasturiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik hamda gramatik jihatidan shakllanishi borasida sintaksisning yozuvda ifodalanishi kesim shaklining boshqa gap bolaklari bilan aloqaga kirishuvini yuzaga keltiradi. Kesimning boshqa fe'l shaklidagi so'zlar bilan ma'lum gap bolagini shakllantirishida nisbatlar va gap bo'laklarining aloqadorligi kattadir.

References:

1. Jamolxonov H. "Hozirgi o'zbek adabiy tili". Toshkent-"To'lqin"- 2005
2. X. Muhitdinova, D. Xudayberganova, I. Umirov, N. Jiyanova, T. Yusupova "Hozirgi o'zbek adabiy tili". "O'qiruvchi" nashryot-matbaa ujdoy uyi. Toshkent - 2006

² X. Muhitdinova, D. Xudayberganova, I. Umirov, N. Jiyanova, T. Yusupova "Hozirgi o'zbek adabiy tili". "O'qiruvchi" nashryot-matbaa ujdoy uyi. Toshkent - 2006